

## INSONDA UCHROVCHI SURUNKALI VIRUSLI GEPATITLAR

**Xasanova Barfena Akmal qizi**

*Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti*

*Tibbiy Profilaktika fakulteti*

*4-kurs talabasi*

**Umbarova Sabina To'liqin qizi**

*Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti*

*Tibbiy Profilaktika fakulteti*

*4-kurs talabasi*

**Saydaliyeva Mohira Zayniddin qizi**

*Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti*

*Tibbiy Profilaktika fakulteti*

*4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *virusli gepatitlarni chaqiruvchi gepatotrop viruslar va ular xususiyatlarini aniqlash, keltirib chiqaruvchi omillar hamda profilaktikasini targ'ib etishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *virusli gepatitlar, gepatotrop viruslar, virusli gepatit patogenezini, immunokompetent tizim.*

Oxirgi yillarda virusli gepatitlar, jumladan surunkali virusli gepatitlar masalasi dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Virusologiya fanining rivojlanishi hamda gepatotrop viruslarning (A, B, C, D, E, G) ochilishi har bir virusli gepatitning tipini ham etiologik, ham epidemiologik nuqtai nazardan o'rganish, ushbu kasalliklarda rivojlanayotgan infeksiyon jarayonlarning xususiyatlarini alohida-alohida o'rganish imkoniyatini yaratdi. Virusli gepatitlar va ularning surunkali shakllari o'zining keng tarqalganligi, asorat va oqibatlari bilan hamda ularni davolashdagi muayyan qiyinchiliklar tufayli ko'pgina mutaxasislarni o'z atrofiga qamrab oladi. So'ngi yillarda virusli gepatitlarni chaqiruvchi gepatotrop viruslar va ular xususiyatlarining aniqlanishi, ushbu viruslarning antegenlari va ularga qarshi rivojlanuvchi antitelolalarni hamda har bir gepatit turida jigarda infeksiyon jarayonlar rivojlanishi zamonaviy kompleks usullar yordamida o'rganish har bir nozologik shakl (virusli gepatitning A, B, C, D, E) uchun bir muncha xos bo'lgan kasallik patogenezini yoritib berish imkonini yaratdi. Ammo bu masalalarda tug'ri tushunish va talqin qilish uchun virusli gepatitning umumiy patogenezini bilish muhim rol o'ynaydi. Bu borada B.K.Besprozvanniy virusli gepatitning patogenezini o'rganishda odam va hayvonlarda o'chraydigan virusli gepatitlarda qiyosiy morfologik taxlil o'tkazib katta hissa qo'shgan. Bu olim 1969-yilda odam va hayvonlarda rivojlanuvchi virusli gepatitlar bo'yicha to'plagan juda katta materiallarni umumlashtirib, virusli gepatitlarning umumiy patogenezini yaratdi. Ushbu patogenezda olim infeksiyon jarayonning ko'p qirrali ekanligini, organizm reaksiyalarining murakkabligini hamda kasallik jarayonida gomeostazning

yangidan-yangi mexanizmlari, jumladan, immunologik va autoimmun reaksiyalarining qo'shilishini isbotlab berdi. Undan tashqari, u retikuloendotelial hujayralarning shikastlanishi birlamchi, gepatositlarning shikastlanishi esa ikkilamchi ekanligini ko'rsatib berdi. Hamma vaqt ham barcha gepatositlarning bir vaqtning o'zida zararlanmasligi ham aniqlandi. Gepatositlarning zararlanishishi negizida maxsus bo'lmagan jarayonlar, ya'ni moddalar almashinuvi buzilishi, autoimmune va gemodinamika o'zgarishlari ham yotar ekan. B.K.Besprozvanniyning klinisist-olimlar E.M.Tareev, A.F.Blyuger, I.K.Musaboyev tomonidan qayta ishlangan va to'ldirilgan patogenezi odamlarda rivojlanuvchi virusli gepatit patogenezining asosini tashkil etadi. Ushbu patogenezga ko'ra infeksiyon jarayonning kechishida 3 ta asosiy omilining ahamiyati kattadir. 1. Virsalogik omil. 2. Immunokompetent tizimning holati. 3. Modda almashinuvi buzilishi hamda jigar hujayralarining shikastlanishi oqibatida rivojlanuvchi klinik sindromlar. Surunkali virusli gepatitlarni davolash juda murakkab va uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham davolovchi shifokordan, ham bemordan e'tiborni, qat'iylikni, xohish va ixlosni talab qiladi. 1968-yildan to 1994-yilgacha ishlatib kelingan surunkali gepatitlarning eski tasnifi oxirgi yillarda bemorlarni davolashda qo'l kelmay qoldi, chunki u faqat jigardagi morfologik o'zgarishlarga e'tibor qaratib, asosiy ko'rsatgich bo'lmish virusning holatini inobatga olmas edi. Shuning uchun ham ayrim hollarda davo choralari tog'ri bo'lmagan. 1994-yilda amalyotga tatbiq etilgan surunkali gepatitlarning yangi tasnifi bunday kamchiliklarni bartaraf etdi, deb aytish mumkin. Ushbu tasnif, surunkali gepatitlarni davolashda asosiy qilib virusning replikativ faolligini belgilaydi hamda virusga qarshi davoni qaysi holda berish lozim va aksincha, qaysi hollarda lozim emasligini ko'rsatadi. Buni amalyotga joriy qilish uchun, albatta, surunkali virusli gepatitlarni davolashning asosiy prinsiplarini bilish zarur. Yani bunda, surunkali virusli gepatitlar bilan og'rigan bemorlar ular uchun loyiq bo'lgan ish bilan ta'minlanishlari, og'ir jismoniy ishlarni qilmasliklari, sog'lom turmush tarziga amal qilishlari, kun tartibiga qat'iy roya etishlari kerak. Kasallik xuruj qilganda esa yarim tushak holatiga o'tish jigar funksiyalarining yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Albatta, bunda turli fizik ta'sirotlar va psixik hayajonlanishlarning yo'qotilishi ham muhim rol o'ynaydi. Ovqatlanish 4 marta, oz-ozdan bo'lishi ma'qul. Bu holda yog'li, qovurilgan va o'tkir ovqatlar, spirtli ichimliklar iste'mol qilmaslik tafsiya etiladi. Xulosa qilib shuni aytish joyizki, surunkali virusli gepatitlarni o'rganish usullari yaratilib, chuqur izlanishda bo'linsa, albatta, yaqin kelajakda ushbu usullar samaralari va virusologiya fani muvaffaqiyatlari asosida insoniyat virusli gepatitlarning ayrim turlari va og'ir asoratlaridan xalos bo'ladilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:**

- 1.F.H.Komilov, B.P.Aliev, R.P.Nazarova // Surunkali B va delta-gepatitlar.Toshkent "VORIS\_NASHRIYOT" 2010.
2. K. O'. Zokirova, "Hamshiralik ishi asoslari", Toshkent - 2014, 274 - bet.